

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI

\*\*\*

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
МАШИНОСТРОЕНИЕ

\*\*\*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL  
MACHINE BUILDING

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan Andijon mashinasozlik institutining "Maashinasozlik" ilmiy-technika jurnali "TEXNIKA" va "IQTISODIYOT" fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yhatiga kiritilgan.*

Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to'liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim mos tushmasligi mumkin. Ilmiy-technika jurnalida yozilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolaning mualliflari mas'ulidirlar.

<b>Transport</b>	
Статические характеристики оптоэлектронных дискретных преобразователей перемещений с полыми и волоконными световодами <b>Холматов У.С.</b>	128
Use of the expert assessment method in technological equipment of automobile enterprises <b>Islomov Sh.E.</b>	136
Метод восстановления поверхности катания цельнокатных колес пассажирских вагонов <b>Зайнитдинов О.И., Абдуллаев Б.А., Галимова Ф.С., Гайипов А.Б.</b>	144
Karter moyining tarkibiy tahlili yordamida avtomobil dvigatellarini diagnostikalash usuli tahlili <b>Umirov I.I.</b>	155
Yuk vagon g‘ildiraklariga kuch ta’sir qilganda, diskdan obodga o‘tish qismida hosil bo‘ladigan kuchlanishlarni solidworks dasturida aniqlash <b>Шоқучкоров К.С., Абдуллаев Б.А., Гайипов А.Б., Джаббаров Ш.Б., Ҳикматов Ф.Ф.</b>	161
Основные тенденции цифровизации транспортно-логистических провайдеров <b>Илхомов С.С.</b>	166
Avtomobil old oynasini avtomatik tozalash qurilmalarining tahlili <b>Saydaliyev I.N.</b>	173
Оценка устойчивости грузового вагона при движении на кривых участках пути <b>Намозов С.Б., Рахматов Х.А., Джаббаров Ш.Б.</b>	179
<b>Iqtisodiyot</b>	
Развитие системы менеджмента качества предприятий лёгкой промышленности и совершенствование методов её оценки в условиях цифровизации <b>Сафина Н.Т.</b>	186
Зарубежный опыт цифровой трансформации экономики <b>Сотвoldиев А.А.</b>	200
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: sanoat mahsulotlari eksportining istiqbollari <b>Ilyosov A.A.</b>	209
Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish <b>Qobulova M.Y.</b>	216
Цифровая экономика в эпоху глобализации <b>Халилов Н.Х.</b>	224
Issiq iqlimli mintaqalarda foydalanishi mo‘ljallangan avtomobillarini yonaki to‘qnashuvda himoyalash tizimi sinov usullari <b>Qayumov B.A.</b>	232

*Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li  
Farg‘ona politexnika instituti, PhD  
e-mail: [i.asrор@ferpi.uz](mailto:i.asrор@ferpi.uz), +99890-163-33-03*

## **“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI: SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORTINING ISTIQBOLLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada sanoat mahsulotlari eksportining etakchi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliy tajribalari tadqiq qilingan. Tadqiqot va tahlillar asosida xorij tajribasi qiyosiy tavsiflangan hamda mamlakatimizda ushbu tajribadan foydalanish yuzasidan ayrim taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’muriy mexanizmlar, moliyaviy mexanizmlar, sanoat mahsulotlari eksporti, tashkiliy mexanizmlar, iqtisodiy mexanizmlar, huquqiy mexanizmlar.

## **СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030»: ПЕРСПЕКТИВЫ ЭКСПОРТА ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ**

**Аннотация.** В статье рассматривается практический опыт ведущих развитых и развивающихся стран по экспорту промышленной продукции. На основе исследований и анализа сравнительно описан зарубежный опыт и выдвинуты некоторые предложения и рекомендации по использованию этого опыта в нашей стране.

**Ключевые слова:** административные механизмы, финансовые механизмы, экспорт промышленной продукции, организационные механизмы, экономические механизмы, правовые механизмы.

## **"UZBEKISTAN - 2030" STRATEGY: PROSPECTS OF EXPORT OF INDUSTRIAL PRODUCTS**

**Abstract.** The article examines the practical experiences of the leading developed and developing countries in the export of industrial products. On the basis of research and analysis, foreign experience has been comparatively described and some suggestions and recommendations have been put forward regarding the use of this experience in our country.

**Keywords:** administrative mechanisms, financial mechanisms, export of industrial products, organizational mechanisms, economic mechanisms, legal mechanisms.

**Kirish.** Jahon xo‘jaligidagi degloballashuv jarayonlari va Pandemik inqiroz sharoitida tovarlar eksportining o‘sishi jahon yalpi ichki mahsuloti o‘sishiga nisbatan ortda qolgan bo‘lsa post pandemiya, ya’ni pandemiyadan keying tiklanish davrida xalqaro savdo yana o‘sish tendensiyasini qayd etdi. Xalqaro savdoni yanada rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlik bilan bog‘liq omillar sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish zarurati yuzaga kelmoqda. Jahon savdo tashkiloti (JST) ma’lumotlariga ko‘ra, «jahon tovarlar savdosini 2021 yilda 9,7 foizga, 2020 yil 5,3 foizga, 2019 yilda esa 3,0 foizga kamayib, 2018 yildagi 2,9 foiz o‘sishdan sezilarli darajada past natija qayd etgan bo‘lsa, 2022 yilda esa 2,7 %lik o‘sish qayd etdi»[1]. «Bizning so‘nggi prognozlarimiz keskin, uzoq muddatli sekinlashuvni ko‘rsatmoqda, global o‘sish olti oy oldin kutilgan 3,0 foizdan 2023 yilda 1,7 foizgacha pasaygan jami tovarlar savdosining sustlashganligi, asosan, sanoat mahsulotlari eksportining pasayishi hisobiga yuz bermoqda»[2]. Sanoat mahsulotlari tovarlar eksportining asosiy qismini tashkil etadi. Jahon tovarlar savdosini rivojlantirishda sanoat mahsulotlari

eksportining o'sishi ustuvorlikka ega bo'lib, bu esa sohada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ilyosov A. (2020) raqamli iqtisodiyotda raqamli ishlab chiqarish va sanoat mahsulotlarini eksport qilishdagi ayrim muammolarga e'tibor qaratilgan [3].

Kurpayanidi K., Ilyosov A. (2020) mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish kontekstida raqamli texnologiyalardan sanoatda foydalanish muammolarini o'rgandilar [4].

Kurpayanidi K. va boshqalar. (2020) O'zbekistonda raqobatbardosh milliy innovatsion tizimni shakllantirish masalasi tahlil qilingan [5].

Ilyosov A. (2022) sanoat mahsulotlari eksportining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan [6].

Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. (2020) sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv metodoligiyasi va mexanizmlari tadqiq qilingan [7].

Ilyosov, A. (2021). etc. (2021). Sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirishda klasterli yondashuvga asoslangan mexanizmlardan foydalanish istiqbollari o'rganilgan [8].

Ilyosov, A. A. (2020). Sanoat mahsulotlari eksportining mamlakat va hududiy darajadagi tahlili asosida ayrim amaliy takliflar ishlab chiqilgan [9].

Ilyosov, Asrорjon Axrorjon o'g'li (2022). Sanoat mahsulotlari eksporti hududiy tahlil qilingan, omillar va eksportdagи tendentsiyalar o'rganilgan [10].

Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. (2020). Pandemiya davrida jahon va hududiy sanoat mahsulotlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillar tadqiq qilingan [11].

Курпаяниди, К. И., & Илёсов, А. А. (2022). Тадқиқот исхида саноат махсулотлари экспортининг ташкилий-иқтисодий мексанизмларини янада такомillashtirish масалалари о'рганиланган [12].

Ilyosov, A. A. (2023). Sanoat mahsulotlari eksportinining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga doir xorij tajribasi va mamlakatimiz amaliyoti tahlil qilingan [13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tizimli tahlil, sintez, statistik guruhlash, ekspert baholari va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xalqimizning istakxohishlarini ro'yogha chiqarish, har bir jamiyat a'zosiga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va har tomonlama salohiyatli avlodni tarbiyalash, globallashuv sharoitida raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, mamlakatimizda qonun ustuvorligi va adolatli ta'minlash, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash maqsadida 2023 yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston - 2030" Strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Strategiyaga asosan belgilab olingan 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsad mamlakatimizning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi asosiy islohotlari uchun muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Farmonning 55-maqsadi "Milliy iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish" deb nomlanib, unda quyidagilar belgilab berildi:

- Eksport hajmini 2 barobarga oshirish va 45 milliard dollarga etkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga etkazish;
- eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobarga ko'paytirish, Evropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish;
- xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish;
- dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish;

- «Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti» g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Fikrimizcha, yuqorida Strategiya va unda belgilangan maqsadlarga erishishda murakkab texnologiyali, kapital sig'imli va sanoat mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishda eksportni davlat tomonidan kafolat-sug'urta va kredit kafolati ostida qo'llab-quvvatlash muhim rol o'yaydi. Amalda, bunday qo'llab-quvvatlashga ega bo'lgan turli tender va tanlovlarning ishtirokchilari yanada imtiyozli shartlardagi moliyalashtirishga ega bo'lishlari mumkin, bu esa o'z navbatida muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

Eksportyor-korxonalarga yordam berishning bir qator vositalari va mexanizmlarini o'z ichiga olgan tashkiliy mexanizmlardan eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng asosiy elementlaridan biri sifatida samarali foydalanib kelinmoqda.

Tadqiqotlar asosida o'rganilgan rivojlangan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlashning quyidagi tashkiliy vositalari mavjud:

- axborot-maslahat yordami (bozor va marketing tadqiqotlari, yuridik maslahatlar berish va hk);
- o'quv va maxsus axborot-ta'lim tadbirlari (seminarlar, vebinarlar va boshqalar);
- reklama, ko'rgazma va yarmarkalarni tashkil qilish, xorijiy sheriklar bilan biznes aloqalari va hamkorlik aloqalarini o'rnatishga ko'maklashish;
- «savdo-siyosiy qo'llab-quvvatlash (JST vositalaridan, erkin savdo bo'yicha mintaqaviy va ikki tomonlama kelishuvlardan samarali foydalanishni ta'minlash orqali tashqi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash, kamsituvchi cheklowlarni bartaraf etish);
- siyosiy-diplomatik qo'llab-quvvatlash (davlat tashriflari, lobbizm, investitsiya loyihalari va eksport bitimlarini qo'llab-quvvatlash, ijobiy biznes imidjini ilgari surish);
- haddan tashqari ma'muriy to'siqlarni olib tashlash».

Rivojlangan mamlakatlarda eksportni zamonaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi davlat va nodavlat institutlar, shu jumladan, ixtisoslashgan vazirliklar va idoralar, ixtisoslashgan muassasalar va eksport markazlari, moliyaviy institutlar, mintaqaviy va xorijiy hodimlarning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Fikrimizcha, ushbu mamlakatlar orttirgan boy amaliy tajriba jahon xo'jaligida globallashuv jarayonlari shiddat bilan chuqurlashib borayotgan bir davrda har bir rivojlanayotgan mamlakat uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Rivojlangan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining  
qiyosiy tavsifi**

<b>Nº</b>	<b>Mexanizm-lar</b>	<b>AQSH</b>	<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>Germaniya</b>	<b>Yaponiya</b>	<b>Janubiy Koreya</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
1.	Huquqiy	Qonunlar va maxsus komissiya nazorati	Qonun va qonunosti hujjatlar	Qonunlar va federal nazorati	Qonun va maxsus me'yoriy huquqiy hujjatlar	Qonunlar va davlat nazorati
2.	Tashkiliy	Vazirlik, davlat va nodavlat tashkilotlar	Agentlik, vazirlik	Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va energetika	Vazirlik, kengash va turli dasturlar	Davlat agentligi

				vazirligi		
3.	Moliyaviy	Eksimbank	Eksport kreditlarini kafolatlash departamenti	xususiy banklar konsortsiumi AKA va KFW davlat bank guruhi	Yaponiya xalqaro hamkorlik davlat banki	Koreya savdo-investitsiya rivojlanish agentligi
4.	Ma'muriy	Markazlashgan va xususiy tizim	Markazlashgan davlat boshqaruvi	Federal, mintaqaviy darajada	Markazlas hgan davlat boshqaruv i	Markaziy va mintaqaviy
5.	Iqtisodiy	konsalting, moliyaviy vositalar va individual marketing strategiyalarini ishlab chiqish	axborot-maslahat, marketing, reklama xizmatlari, shuningdek, siyosiy-diplomatik qo'llab-quvvatlash, maxsus dasturlar	Marketing, transport subsidiyalasi, maslahat	konsalting va reklama xizmatlari, lobbizm	logistik qo'llab-quvvatlash, imidj va brendni targ'ib qilish
6.	Hududiy	Eksportga ko'maklashish markazlari, Kichik biznes administratsiyasining markazlari	Markaziy hukumat boshqaruvidagi hududiy bo'linmalar	Hududiy savdo-sanoat palatalari	Yaponiya tashqi savdosiga ko'maklas hish tashkiloti va uning bo'linmalar	Davlat agentligining vakolatxonalari
7.	Axborot va internet resurslari	<a href="http://export.gov/business.USA.gov">export.gov, business.USA.gov</a>	<a href="http://exportingisgreat.gov.uk">exportingisgreat.gov.uk</a>	<a href="http://ixpos.de">ixpos.de</a>	<a href="http://jetro.go.jp/en/">jetro.go.jp/en/</a>	<a href="http://http://english.kotra.or.kr">http://english.kotra.or.kr</a>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yetakchi rivojlangan mamlakatlarda sanoat mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlashning xilma-xil mexanizmlari qo'llanib kelinmoqda. Ushbu mexanizmlarning aksariyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga asoslangan bo'lib, milliy amaliyotda xorijiy eksport markazlari, mahalliy brendlarni targ'ib qilish, turli sug'urta mahsulotlari taqdim etish, mintaqaviy darajada sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish kabilarni joriy etish va samarali qo'llash mumkin.

Eksportni yanada oshirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Eksportni rivojlantirish agentliklari va Eksport markazlarini tashkil qilish;
- Eksportni sug'urtalash tizimi va eksport kredit agentliklari faoliyatini rivojlantirish;
- eksport geografiyasini yanada kengaytirish.

Masalan, Hindiston aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rindagi mamlakat sifatida bozori ancha katta. Navbatdagi mo'ljal Yaponiya va Janubiy Koreya hisoblanadi. Janubiy Koreya biz uchun strategik savdo hamkorlari hisoblansada, biz uchun salbiy saldo saqlanib qolmoqda. Yaponiya yiliga salkam 600 milliard dollarlik mahsulot import qiluvchi gigant bozor bo'lib, yapon bozori qoidalarini yaxshi o'zlashtirish zarur. Ushbu mamlakatlar bozorini o'rganish, marketing tadqiqotlarini olib borish hamda ular asosida nazariy amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqish lozim.

Eksport markazlarini tashkil etish rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari orasida alohida o'rinni tutadi. Sanoat mahsulotlari eksport markazi (keyingi o'rinnlarda Markaz) quyidagi tashkiliy tuzilmalarni o'zida birlashtiradi:

- 1.Boshqarish tuzilmasi.
- 2.Xizmat ko'rsatish tuzilmasi.
- 3.Hamkorlik tuzilmasi.
- 4.Mijozlar va stajyor-kadrlar bilan ishlash tuzilmasi.

## **2 - jadval.**

### **Eksport faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari**

Boshqaruv uslublari		Eksport siyosatini amalga oshirish vositalari	Amalda mavjudligi
Tashkiliy-iqtisodiy	Tariflar orqali	Bojxona boji	No1 stavkada
	Miqdoriy cheklashlar	Kvotalash, litsenziyalash	Ayrim mahsulot va faoliyat turlari uchun
	Notarif	Yashirin Ko'ngilli eksport cheklashlari	Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan o'z milliy mahsulotlarini chet elga olib chiqishda importyor tazyiqi ostida eksportni cheklashga majbur bo'lishi ko'rinishida
Tashkiliy-huquqiy	Moliyaviy	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Subsidiyalar</li> <li>• Eksport kreditlari</li> <li>• Antidemping</li> </ul>	Mavjud Mavjud Mavjud
	Eksportga ko'maklashuvchi milliy tashkilotlar tizimini yaratish	Milliy mahsulotlarni chet elda ilgari surish va yangi bozorlarni qidirib topish	"O'ztreyd" AJ tashqi savdo kompaniyasi
	Eksport faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish	Mayjudlarini hozirgi zamон talabiga moslashtirish, zaruriy bo'lganlarini qabul qilish va amaliyotga kiritish	Qonun, farmon, qaror va boshqa qonun osti hujjatlari

	Eksportyorlar uchun yuridik va axborot-maslahat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish	Yuridik, axborot-maslahat va marketing xizmatlarini ko'rsatish	Eksportni rag'batlantirish agentliklari
--	--	--	---

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantrish, iqtisodiyotimizga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida yuqori tenologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish sohasidasi boshqaruv jarayonlari va ularda foydalanilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, boshqarishning uslub va vositalarining tadbiq qilish sohalari, ular orasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlilik 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, eksportni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ichida bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Keying yillarda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan tashqi savdoning salbiy qoldig'i saqlanib qolmoqda. Bugungi global dunyoda ro'y berayotgan murakkab geosiyosiy vaziyat esa bu jarayonlarga o'z ta'sirini tobora kengroq ko'rsatmoqda. Xususan, eng yaqin savdo hamkorlarimizdan hisoblangan Rossiya Federatsiyasiga nisbatan qo'llanilayotgan siyosi, iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bizni ham chetlab o'tmasdan qolmayapti. SWIFT tizimida chekllovlar ta'sirida valyuta borasida yuzaga kelgan muammolar Federal zahira tizimi bilan bevosita ishlash esa yangi majburiyat va vazifalarni vujudga keltirmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatmoqdagi eksport faoliyatini davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlar vositalarini ishga solibgina xorij bozorida raqobatbardosh mahsulot yetkazib beruvchi mamlakatlar qatoridan joy egallash mumkin. Ushbu vositalar davlat tomonidan qo'llaniladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Eksport faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- sanoat mahsulotlari sifatini oshirish orqali Yevropa Ittifoqi (CE, GSP+) va jahon standartlari talablariga moslashish, xalqaro sertifikat va litsenziyalar, shu jumladan, Global GAP, ISO va boshqa hujjalarni olishga ko'maklashish;
- jahon bozoridagi konyunkturaviy tebranishlarni o'z vaqtida baholash, xorijiy mamlakatlarning milliy mahsulot va xizmatlarimizga bo'lgan talabini o'rganish orqali tadbirkorlar uchun horijiy hamkorlar topish va eksport shartnomalarini imzolashga ko'maklashish;
- hududlarda muntazam ravishda korxonalarni eksport faoliyatiga jalg etish hamda yuzaga kelayotgan muammoli masalalar muhokamasiga bag'ishlangan uchrashuvlarni tashkillashtirish;
- sanoat tarmog'ida tovar va narx siyosatini takomillashtirish yo'nalishi va mahsulot savdosini rag'batlantirish tizimlarini taklif etish;
- sanoat mahsulotlari eksporti samaradorligining oshishini ta'minlovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlarni amalga oshirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [https://www.wto.org/english/res\\_e/publications\\_e/wtsr\\_2023\\_e.htm](https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtsr_2023_e.htm)
2. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/254aba87-dfeb-5b5cb00a-727d04ade275/content>
3. Ilyosov, A. Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy// Economics and finance. 2020. №3. 175-182 p. ISSN 2010-9997

4. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 113-117. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>
5. Kurpayanidi, K. et al. The issue of a competitive national innovative system formation in Uzbekistan. E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2020. – T. 159. – C. 04024. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202015904024>
6. Ilyosov, A.A. Sanoat mahsulotlari eksporti: hududiy tahlil, omillar va eksportdag'i tendentsiyalar (Farg'ona viloyati misolida). Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (1), 31-39. Doi: <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6089956>
7. Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 1254-1260. <https://dx.doi.org/10.17605/OSF.IO/E6JFS>.
8. Ilyosov, A. Prospects for the use of mechanisms based on the cluster approach in the development of exports of industrial products. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training, 67-78.
9. Ilyosov, A. A. Industrial and regional analysis of industrial production and export in Uzbekistan. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(10), 173-179.
10. Ilyosov, A.A. Sanoat mahsulotlari eksporti: hududiy tahlil, omillar va eksportdag'i tendentsiyalar (Farg'ona viloyati misolida). Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (1), 31-39. Doi: <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6089956>
11. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. Koronavirus pandemiyasining jahon va hududiy sanoat mahsulotlari eksportiga ta'siri: muammo va takliflar. "Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini taminlash: muammolar, tahlillar va natijalar" mavzusida Respublika miqyosida onlayn, ilmiy masofaviy konferentsiya materiallari.
12. Курпаяниди, К. И., & Илёсов, А. А. Саноат маҳсулотлари экспортининг ташкилий-иктисодий механизmlарини такомиллаштириш (Фарғона вилояти саноат тармоғи мисолида)// Монография. Al-Ferganus, 2022. ISBN 978-9943-7707-5-1. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6618980>
13. Ilyosov, A. A. Sanoat mahsulotlari eksportinining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: xorij tajribasi va amaliyoti // Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (4), 84-91. Doi: <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8088528>